

O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMINING RIVOJLANISHIDA XORIJIY INVESTITSİYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Baratova Shoxzoda Nazirjonovna

Zarmed Universiteti Buxoro Kampusi

Filologiya va biznes fakulteti 2-bosqich talabasi

e-mail: shaxzodabaratova3@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o'rni, ahamiyati hamda ta'siri tahlil qilingan. Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, xorijiy investitsiyalar uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik jarayonlari o'rganilgan. Shuningdek, chet el kapitalining bank tizimi, qimmatli qog'ozlar bozori va boshqa moliyaviy institutlar faoliyatiga ko'rsatgan ijobiy ta'sirlari tahlil etilgan. Maqolada mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ham ilgari surilgan.

Kirish so'zlar: investitsiya, moliya tizimi, xorijiy kapital, iqtisodiy islohotlar, xalqaro moliya institutlari, raqamli iqtisodiyot, investitsion muhit.

Annotation: This article analyzes the role, importance, and impact of foreign investments on the development of the financial system in the Republic of Uzbekistan. It examines the ongoing economic reforms in the country, the favorable conditions created for foreign investors, and the cooperation processes with international financial institutions. Furthermore, the article explores the positive effects of foreign capital on the banking system, the securities market, and other financial institutions. Existing problems and proposals for their solution are also presented.

Keywords: investment, financial system, foreign capital, economic reforms, international financial institutions, digital economy, investment climate.

Аннотация: В данной статье анализируется роль, значение и влияние иностранных инвестиций на развитие финансовой системы Республики Узбекистан.

Рассматриваются проводимые в стране экономические реформы, созданные благоприятные условия для иностранных инвесторов, а также процессы сотрудничества с международными финансовыми институтами. Кроме того, исследуется положительное влияние иностранного капитала на банковскую систему, рынок ценных бумаг и другие финансовые институты. В статье также представлены существующие проблемы и предложения по их устранению.

Ключевые слова: инвестиции, финансовая система, иностранный капитал, экономические реформы, международные финансовые институты, цифровая экономика, инвестиционный климат.

Kirish: Globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda xorijiy investitsiyalar har bir mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim omilga aylangan. Xorijiy kapital nafaqat ishlab chiqarish hajmini kengaytiradi, balki ilg'or texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini ham olib kiradi. Shu bois, investitsiyalarni jalb etish siyosati har bir davlatning iqtisodiy strategiyasida alohida o'rin tutadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasida islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. So'nggi yillarda iqtisodiy liberallashuv, moliya tizimini raqamlashtirish va bank sektorini isloh qilish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mamlakatning sarmoyaviy jozibadorligini oshirdi. 2024-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 11 milliard AQSH dollaridan oshirdi. Bu mablag'larning katta qismi energetika, transport, moliya, qishloq xo'jaligi va infratuzilma tarmoqlarig yo'naltirilgan. Bu jarayon moliya tizimining mustahkamlanishiga, yangi moliyaviy institutlar va xizmatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, chet el investitsiyalarining o'zlashtirilishi moliya tizimining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, banklar faoliyatining raqamlashtirilishi, qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi hamda xalqaro

moliya institutlari bilan hamkorlikning kengayishi O'zbekiston iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashda muhim rol o'ynamoqda.

Chet el investitsiyalari mamlakat iqtisodiyotiga yangi kapital, texnologiyalar va menejment madaniyatini olib kiradi. Ular iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshiradi, yangi ish o'rinlari yaratadi va eksport salohiyatini kengaytiradi. Shu bois, xorijiy investitsiyalar O'zbekistonning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston hukumati xorijiy sarmoyadorlar uchun keng ko'lamli imtiyozlar yaratgan. Xususan, "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari asosida soliq, bojxona yengilliklari hamda investorlar huquqlarin kafolatlovchi mexanizmlar joriy etilgan.

O'zbekiston moliya tizimi-iqtisodiyotning yuragi hisoblanadi. So'nggi yillarda bu sohada chet el sarmoyasining o'zni ortib bormoqda. Xorijiy banklarning kirib kelishi raqobatni oshirdi va xizmatlar sifatini yaxshiladi. "Ziraat Bank", "Tenge Bank", "KDB Bank Uzbekistan" kabi xorijiy kapital ishtirokidagi banklar moliya bozorining modernizatsiyasiga hissa qo'shmoqda. Xorijiy investorlar koorperativ aksiyalar va obligatsiyalarni sotib olish orqali O'zbekiston fond bozorining faollashuviga turtki bermoqda. Shuningdek, xorijiy kompaniyalar sug'urta va mikromoliyaviy xizmatlar yo'nalishida ilg'or texnologiyalarni olib kirib, moliyaviy inklyuziyani kengaytirmoqda.

O'zbekiston Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki(OTB), Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) va Islom taraqqiyot banki (ITB) kabi yirik tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilmoqda. Ularning grant va kredit dasturlari infratuzila, ta'lim, energetika va ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga yo'naltirilmoqda. Masalan, Jahon bankining "Raqamli iqtisodiyot uchun moliyaviy inklyuziya" loyihasi orqali aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengaydi. OTB tomonidan esa kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va yashil iqtisodiyot loyihalari moliyalashtirilmoqda.

Chet el investitsiyalarni jalb etish jarayonida bir qator to'siqlar saqlanib qolmoqda. Ayrim ma'muriy tartibotlarning murakkabligi, sud-huquq tizimidagi bartqarorlik yetishmasligi va investitsion muhitning to'liq shaffof emasligi. Bularni

bartaraf etish uchun investitsiya jarayonlarini soddalashtirish, soliq siyoatini barqaror saqlash va xalqaro arbitaj tizimlari bilan integratsiyani kuchaytirish zarur.

Xulosa: Xorijiy investitsiyalar O'zbekiston moliya tizimini mustahkamlash, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Chet el kapitali yordamida moliya bozori modernizatsiyalanadi, bank sektori raqamlashtirildi va yangi moliyaviy xizmat turlari paydo bo'ldi.

Kelgusida O'zbekistonning asosiy vazifasi-sarmoyaviy muhitni yanada yaxshilash, investorlar ishonchini mustahkamlash va xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirishdir. Faqat shundagina mamlakat barqaror iqtisodiy o'sish va moliyaviy mustaqillikka erisha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Investitsiya muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. — Toshkent, 2023-yil.
2. "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. — Toshkent: Adolat, 2019-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Moliyaviy barqarorlik to'g'risida hisobot", 2024-yil.
4. Jahon banki. Uzbekistan Economic Update: Navigating Reforms in a Changing World. — Washington D.C., 2024.
5. Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB). Country Partnership Strategy: Uzbekistan 2023–2026. — Manila, 2023.
6. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF). Republic of Uzbekistan: Staff Report for the 2024 Article IV Consultation. — Washington D.C., 2024.

7. Karimov, A. (2022). Xorijiy investitsiyalar va ularning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri. — Toshkent: Iqtisodiyot va ta’lim nashriyoti.
8. Abdullayev, B. (2023). Moliyaviy tizimni rivojlantirishda chet el kapitalining roli. — Toshkent: TDIU ilmiy jurnali, №4.
9. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Investitsiyalar va iqtisodiy o‘rish ko‘rsatkichlari to‘plami. — Toshkent, 2024.
10. Raxmonov, D. (2024). O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsion islohotlarning natijalari. — “Iqtisodiyot va innovatsiyalar” jurnali, №2.

.